

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

**“HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JISMONIY
TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL
QILISHNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR”**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ НА
СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ**

**PROSPECTS OF ORGANIZATION OF PHYSICAL
EDUCATION AND SPORTS: PROBLEMS AND
SOLUTIONS**

Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman

2022 yil 28-29 aprel

Buxoro - 2022

Sogʻlom bola tarbiyasida nimalarga eʼtibor berishimiz kerak? Aslida, sogʻlom farzand sogʻlom ota-onadangina dunyoga keladi. Uning ijtimoiylashuvi jarayonida esa turli xil taʼsirlar natijasida yangi hislar shakllanib, maʼlum bir shaxs koʻrinishida kamolga etadi. Sogʻlom deganda faqatgina jismomiy emas, balki ruhi salomatlikni nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Bola tarbiyasida pedagogik va psixologik taʼsirlarni taqqoslab koʻradigan boʻlsak, biz psixologik taʼsirni ertaroq boshlab qoʻyamiz. Chunki, bola bilan turli xil emotsiya orqali munosabatga kirishamiz va uning psixikasi shakllanishiga oʻz taʼsirimizni oʻtkazamiz. Bunga misol tariqasida, jilmayish, biron ayib ish qilsa xoʻmrayish, noroziliklar bildirish orqali hali gapirishni bilmaydigan bola bilan munosabat oʻrnatamiz. Keyinchalik, unga tarbiya va tartib qoidalar meʼyorlari tanishtirila boshlanadi.

Bola qachon tetik va sogʻlom boʻladi? Qachonki ota-onasi yonida boʻlsa, sababi, yosh bola ishongan insolari yonida paytida oʻzini har qachongidan ham kuchli sanaydi. Voyaga etayotgan yosh avlod oʻz oʻtmishini bilishi, kelajagi haqida tasavvurga ega boʻlishi lozim. Bunda kattalarning tutgan oʻrni alohida. Bola uchun oʻz millati, madaniyati, sanʼati, dini, axloqiy-maʼnaviy qadriyatlarini, oila anʼanalari, urf-odatlarini chuqur bilish va ulardan maʼnaviy ozuqa olish, gʻururlanish bolaning manaviy sogʻlomligida muhim tarbiyaviy axamiyat kasb etadi. Sogʻlom bolani shakllantirishga yoʻnaltirilgan asosiy mezon va xususiyatlar bevosita bolaning manaviy barkamolligiga xizmat qiladi, sogʻlom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat boʻlib oʻsib-ulgʻayishi bilan bogʻliq eng muhim omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, har qanday insonning moʻtabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi — sogʻlom bola, sogʻlom farzand, barkamol avlod va har tomonlama komil insonni voyaga etkazishdan iborat.

MAKTABGACHA TAʼLIM MUASSASALARIDA SOGʻLOMLASHTIRISH GIGIYENIK OMILAR BOLALAR ORGANIZMINING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MUHIM VOSITA SIFATIDA

10.53885/edinres.2022.21.17.005

Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida dotsenti

A.T.Toshev

Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida oʻqituvchisi

Q.Q.Qobiljonov

Buxoro davlat universiteti huzuridagi Pedagogika instituti

1-bosqich magistranti X.R.Shukurova

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy- gigiyenik malakalarni tarbiyalash – bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarning hayoti muayyan tartibida oʻtishi, kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim sharti ekanligi taʼkidlab oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: madaniy, gigiyena, malaka, tarbiya, bolalar, organizm, jismoniy, rivojlanish, vosita.

Аннотация. В этой статье отражена важность воспитания культурно- гигиенических навыков в дошкольных воспитательных учреждениях как важного инструмента физического развития организмов детей. А также отмечается, что прохождение в определенном порядке распорядок дня в дошкольных образовательных учреждениях, является ключевым условием физического воспитания в жизни детей.

Ключевые слова: культура, гигиена, квалификация, воспитания, дети, организм, физический, развитие, средства.

Annotation. This article highlights the importance of educating cultural and hygienic skills in preschool education institutions as an important tool for the physical development of children's organisms. It is also noted that the prevalence of children's lives in pre-school educational institutions is a key condition for physical education.

Key Words: Cultural, Hygiene, Qualifications, Education, Children, Organism, Physical, Development, Means.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash dasturga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash bolaning madaniy xulqini yaxshilaydi hamda tartibga soladi. Maqsadga muvofiq tashkil etilgan sharoit, aniq kun tartibi va kattalarning rahbarlik qilishi madaniy-gigiyenik koʻnikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy shartlari qatoriga kiradi.

Maqsadga muvofiq sharoit deganda kun tartibidagi barcha tadbirlar (yuvinish, ovqatlanish, uyqu, mashgʻulotlar va uyinlar)ning oʻtkazilishini taʼminlovchi zarur jihozlari boʻlgan toza, yetarlicha keng va

yorug' binoning borligi tushuniladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda, ko'rgazmali obrazli tafakkur ustun bo'ladi. Shuning uchun ularda gigiyenik ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishda harakatlarni ko'rsatib berish va tushuntirish usullaridan foydalanish zarur. Tarbiyachi qoshikni qanday ushlash, stol atrofida o'tirgan holatdan qanday qilib turib chiqish, qo'llarini qanday yuvish zarurligini tushuntirib berish bilan ko'rsatishni qo'shib olib boradi.

Ko'nikma hosil bo'lishining dastlabki bosqichida nazorat qilib turish ayniqsa muhimdir. Keyinchalik tarbiyachi harakatlarning puxta va vijdonan bajarilishini tekshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar taqlid qilishga moyil bo'ladilar, shuning uchun ko'nikmalarni shakllantirishda kattalarning shaxsiy namunasi katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi va otanonaning tashqi ko'rinishi, ularning hatti-harakatlari bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Ularning ko'rsatmalari, shaxsi hatti harakatiga zid bo'lmasligi lozim, chunki hiech bir narsa bolalarning diqqat e'tiboridan chetda qolmaydi. Zero ular kattalarga taqlid qiladilar. Madaniy gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalashda bolaning o'zidagi yaxshi hislatlariga ham tayanish kerak. (Masalan: «Dilnoza sochig'ini O'z joyiga to'g'ri olib quydi. Barakalla»).

Madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalashda pedagogik jihatdan baholash, ya'ni bolaning ayrim hatti-harakatlari va hulk-atvori to'g'risida pedagogning ijobiy yoki salbiy fikr yuritishi katta rol o'ynaydi: ma'qullash, rag'batlantirish, biror ishini yanada yaxshiroq bajarish istagini saqlab qoladi.

Maqtash zarur ko'nikmaning hosil bo'lishini tezlashtiradi: «Men Zuhraga qanday o'tirish kerakligini tushuntirganim, eslatganim yo'k, uning o'zi to'g'ri o'tirdi. Barakalla, Zuhra!».

Madaniy-gigiyenik malakaning tarbiyalashda o'yin usullariga, ayniqsa didaktik o'yinlarga alohida e'tibor beriladi. «Ko'g'irchoqni uhlatamiz», «Ko'g'irchoqni sayrga olib chiqamiz», «qo'g'irchoqni cho'miltiramiz» va boshqa shu kabi o'yinlar bolalarning madaniy-gigiyenik malakalarini shakllantirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

Bolalarning qanday yuvinish, stol atrofida qanday o'tirish, bir-biriga yordam berish zarurligi haqida tasavvurlarni oydinlashtirishga, ko'nikmalarning hosil bo'lishiga tegishli rasmlar, badiiy va san'at asarlari katta ta'sir kursatadi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarning hosil bo'lishida bolalarga alohida-alohida yondashish muhimdir. Shuni esda tutish kerakki, bu batartiblikni, talabchanlikni tarbiyalaydigan murakkab vazifadir. Ko'rsatmalar esa, ularda odatga aylanishi kerak bo'lgan harakatlarga ijobiy munosabat uyg'otadigan do'stona, bamaylixotir ohangda bo'lishi kerak.

Kun tartibi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti muayyan tartibida o'tadi. Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning muhim vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, xayot talabidir.

Kun tartibini tashkil etuvchi barcha qismlar (ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayrlar)ni bir me'yorda takrorlash natijasida mustaqil ko'nikma paydo bo'ladi. Masalan, bolaning odatlangan ovqatlanish soati kelganda, unda ishtaha paydo bo'ladi, shu tufayli ovqatni ishtaha bilan yeydi, bunda ovkat yaxshi hazm bo'ladi. Uxlash vaqti kelganda nerv tormozlanishi hosil bo'ladi, bola tez uxlab qoladi. Demak, kun tartibini bajarish nerv sistemasi va barcha fiziologik jarayonlar normal kechishida muhim rol o'ynaydi, bosh miya yarim sharlarida reflekslar paydo bo'ladi. Bola organizmi dam oladigan, uynaydigan, mehnat qiladigan vaqtni reflektor sezadi.

Chiniqtirish. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash chidamlilik, zararli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish, hayotiy sharoitlarning o'zgarishiga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

O'zgargan sharoitga organizmning moslashishi juda murakkab jarayondir. Bunda nerv, qon aylanish, ichki sekresiya bezlari kabi bir qancha sistemalar ishtirok etadi. Ainiqsa, bosh miya yarimsharlari po'stining ta'siri kattadir. A.P.Pavlov organizmning turli sharoitlarga moslashishining fiziologik asoslarini ko'rsatib o'tgan.

Chiniqtirishning asosiy tamoyillari sistemalilik, doimiylik va shaxsning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Sistemalilik shartli reflekslarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Chiniqtirish meyorlari bolalarning o'ziga hos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda hamda shifokor bilan kelishgan holda belgilanadi. Bola kundalik hayotida chiniqtirib boriladi. Artinish va cho'milishda suv harorati pasaytirilib, oftob vannasining vaqti asta-sekin oshiriladi. Chiniqtirishning asosiy vositasi tabiat in'omlari — havo, suv va kuyosh vannasidir. Havo orqali chiniqtirishda sovuq havo bilan jismoniy mashqlar majmui birgalikda ta'sir ettiriladi. Havo vannasidan uyqu vaqtida yoki havo bulut bo'lgan vaqtlarda foydalaniladi. Uyqu vaqtida bolalar salqin yerga qo'yilgan karavotga yotqiziladi. Havo vannasidan foydalanishda quruq, shamoldan holi bo'lgan tekis maydon tanlanadi, tarbiyachi

bu maydonchada yengil kiyingan bolalar bilan 10-15 daqiqa harakatli o'yinlar yoki mashqlar bajaradi. Issiq yoz kunlarda o'rtacha harakatli o'yinlarni tanlash kerak. Aks holda bolalar juda qizib ketadilar. Havo vannasi sata-sekin 10-15 daqiqadan 25 daqiqagacha oshib boriladi. Kun sovuqroq bo'lganda ko'p harakat talab qiladigan o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar charchab qolmasligi uchun bu o'yinlar osoyishta o'yinlar bilan almashtirib turiladi.

Havo vannasidan faqat yozdagina emas, balki boshqa fasllarda ham darchasi ochib qo'yilgan keng xonalarda foydalanish mumkin.

Suv bilan chiniqtirish barcha yosh guruhlar kun tartibida yilning hamma fasllarida o'tkazish tavsiya etiladi. Bu tadbir sog'lig'i zaif bo'lgan bolalar tibbiyot xodimi nazorati ostida o'tkaziladi. Suv, havo haroratining o'zgarib borishi bola organizmiga ta'sir etib termoregulyasion apparatni mashq qildiradi, tashqi sharoitga, ob-havoning o'zgarishiga odatlanish reaksiyasini shakllantiradi. Bola organizmining chiniqishi bilan bir qatorda uning irodasi ham chiniqib boradi. Bunda eng muhimi — bola ilk yoshligidan boshlab suvning xususiyatlarini bilib borishi uchun katta e'tibor berilishni talab qilinadi.

Bolalarni daryoda, ko'lda, ochiq havzalarda cho'miltirish, suv, havo, quyosh ta'sirida organizmning chiniqish jarayoni yanada samaraliroq o'tadi. Suv tadbirlari muntazam ravishda, izchillik bilan olib borilsa, teri har doim toza bo'ladi va har kuni suv tadbirlarini olish ehtiyoji kuchayadi.

Suv tadbirlarini huzur bag'ishlaydigan qilib o'tkazish kerak. Bolalarda suv tadbirlari jarayonida salbiy his paydo bo'lsa, bunday tadbir yaxshi samara bermaydi va ularda bunday tadbirga nisbatan salbiy munosabat hosil qiladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarda ijobiy munosabat uyg'otuvchi metod va usullardan foydalanish lozim.

Suv muolajasi badanni ho'l mato bilan artish, suv quyish va cho'milish ko'rinishida o'tadi. Ammo bu tadbirlarda bola sovg'otmasligi kerak.

Artinish hamma yosh guruhlarida yumshoq bo'lmagan materiallardan tikilgan xo'l yengchalar bilan o'tkaziladi. Xo'l yengcha bilan organizmning bir qismi ho'llanadi va tezlik bilan o'sha yeri quruq sochiq bilan artiladi. Odatda artinish quldan boshlanadi, so'ng bo'yin, ko'krak, qorin, bel va oyoqlar artiladi. Oldin suv 30 gradus iliqdagi olinadi, keyinchalik sekin-asta uning darajasi 22 gradusdan 20 gradusgacha pasaytiriladi.

Suv quyishda dush yoki leykadan foydalanib, 40-50 sm balandlikdan oshirimay quyish kerak. Suv quyishdan oldin yelka, so'ng ko'krak va qorin, keyin gavdaning o'ng va chap tomoni namlanadi. Suvga boshi tutish tavsiya etilmaydi. Yoz kunlari biroz hullash mumkin. Suv oqimi ostida 20-40 sekund turish mumkin, keyin badan darrov quruq sochiq bilan artilishi kerak.

Suv quyish va artinishda suv harorati 30 gradusdan har uch kunda 1 daraja pasaytirilib, 20-18 gradusga tushiriladi. qishda 4-6 kunda pasaytirilib, suv quyishda oxiri 25 gradusga tushiriladi. Oyoqlarga uy haroratidagi suv quyiladi.

Quyosh nurida chiniqtirish orqali organizmda «D» vitamini paydo bo'lishiga yordam beriladi. Ammo undan ortiqcha foydalanish kishida bosh og'rig'i, uyqusizlik, ishtaha buzilishi, kamqonlik, lanjlik kabilarga olib keladi. Sil, bezgak kasalliklari bilan og'rikan bolalarga quyosh vannasi mutlaqo ma'n etiladi.

Quyosh vannasi dastlabki 4 daqiqadan qabul qilinadi, tananing har bir tomoni 1 daqiqadan toblanadi. Quyosh vannasi qabul kiladigan maydoncha quruq havo yaxshi aylanidigan, kuchli shamollardan pana bo'lishi lozim. Yaqinroq masofada dush, kiyinadigan, yechinadigan joy bulishi kerak.

Bizning iqlim sharoitimizda quyosh vannasi ertalab soat 9-11 oralig'ida olgan ma'qul. Bolalar fanerdan yoki taxtadan yasalagan so'rilariga oyoqlarini quyosh tomonga, boshlarini esa soya tomonga qaratib yotqiziladi. Quyosh vannasi qabul qilingandan keyin ularning ustidan suv quyish yoki cho'miltirish lozim. Bunda bolaning ruhi yengillashadi, terlari yuviladi, qizigan tana va sovuk suv o'rtasidagi fark organizmni chiniqtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, darhaqiqat, madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Ахмедова М. Педагогик конфликтология. –Т., 2017
- 2.Akhmedova M. et al. Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel. – 2021.
- 3.Ахмедова М. Т. INFORMATION SECURITY IN INTERNAL AND EXTERNAL POLICY OF THE STATE //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. –№. SPECIAL 2.

4. Alikhanovich M. N. et al. IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR THE FUTURE TEACHERS' PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 9. – С. 2372-2380.
5. Кобилжонов К. Роль семьи в обучении детей национальной борьбе кураш //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-2 (87). – С. 67-69.
6. Fazliddinov F., Kobiljonov K. Ideya sovershennoy lichnosti v trudax mislitley vostoka //Nauchno-metodicheskiy jurnal (MANPO). – 2020. – Т. 1. – С. 100-103.
7. Кобилжонов К. К., Фазлиддинов Ф. С., Фозилова З. Ж. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 100-103.
8. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Ж., Кобилжонов К. К. Высокая духовность основа экологической культуры //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 5-8.
9. Qobiljonovich K. K., Mexrididnova A. G. THE ESSENCE OF THE INITIAL EDUCATION OF THE ZOROASTRIANS //Конференции. – 2020.

ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР - БОЛАЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА САМАРАЛИ ВОСИТА

10.53885/e3653-4131-9593-u

Мухитдинова Нигора Махриддиновна,

Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, Бухоро давлат университети

Қадимги юнонлар давридан бери жисмоний фаолият интеллектуал қобилиятлар билан боғлиқ деган эътиқод мавжуд. Бирок, болаларда жисмоний машқлар ва ақлий функция ўртасидаги муносабатлар нисбатан яқин вақтгача тизимли равишда баҳоланмаган. [Киркендалл](#) томонидан тақдим этилган тарихий шарҳ (1986) нима учун бундай бўлганига ойдинлик киритади. Унинг 1985 йилгача чоп этилган тадқиқотларини кўриб чиқиши шуни кўрсатдики, жисмоний фаолиятнинг психологик фойдалари бўйича бир қатор тадқиқотлар 1950 ва 1960 йилларда ўтказилган.

1960-йилларда ўтказилган бир қатор тадқиқотларда жисмоний машқлар таъсирини баҳолаш учун глобал IQ кўрсаткичларидан фойдаланилган. Ушбу тадқиқотлар тарихан эскирган бўлса-да, улар биринчи бўлиб мунтазам жисмоний фаолиятнинг болаларнинг ақлий фаолиятига таъсирига беvosита эътибор қаратганлиги сабабли муҳим аҳамиятга эга. ([Еллис , 1969](#), [Кордер 1966](#))

2017 йилдан бошлаб Ўзбекистонда мактабгача таълимни ривожлантиришга эътибор кучайтирилди. Мактабгача таълим ташкилотларида ҳар бир боланинг тўлақонли жисмоний ва интеллектуал ривожланишини таъминлаш, психомотор ва интеллектуал қобилиятли болаларни ўз вақтида аниқлаш ва қўллаб-қувватлаш учун қулай шарт-шароит яратишга эътибор қаратилмоқда.

Боғчада спорт майдончаси ва спорт зали кенг ассортиментдаги тренажёрлар, спорт анжомлари ва мактабгача ёшдаги болаларнинг ёшлиқдан бошлаб жисмоний ривожланиши ва чиниқишига хизмат қиладиган барча спорт анжомлари билан жиҳозланган. Жисмоний тарбия тизимида гимнастика ва мусобақалардаги аънавий жисмоний тарбия машғулоти билан бир қаторда "Таэквандо", "Бадий гимнастика" "Очиқ ҳавода ўйинлар" кабиларга болалар кенг жалб қилинган.

Таъкидлаш лозимки, болаларнинг жисмоний фазилатларини ривожлантириш, спорт ўйинларига жалб қилиш уларнинг интеллектуал ривожлантиришни таъминлайди. Жисмоний фаолият нафақат мушакларнинг фаоллигини оширишга, балки деярли барча соҳаларни, шу жумладан мия ярим шарининг олдинги зоналарини рағбатлантиришга имкон беради, бу эса когнитив ва жисмоний машқлар ўртасидаги муносабатларни таъминлайди.

Болалар боғчасида тарбияланувчиларнинг интеллектуал қобилиятини ривожлантиришга хизмат қилувчи жисмоний машқлар дастурини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Ушбу дастур комплекс мақсадли бўлиши, когнитив-нутқ фаолиятини ташкил этиш тадқиқот ўйинлари, ўз-ўзидан ва ижодкорликни ривожлантириш учун ижодий вазифалар билан тўлдирилган, очиқ ҳавода бажариладиган мақлар тўплами, гимнастика машғулоти, ижодий фикрлар ва тасаввурга асосланган мушакларни бўшаштириш машқларидан иборат бўлиши муҳим.

Мактабгача ёшдаги болаларни асосий фаолияти ўйин бўлишини инобатга олиб, Илк кадам дастурида назарга тутилган компетенцияларни шакллантиришда, болаларга чет тилини ўргатишда, ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда спорт ўйинларидан фойдаланиш ўзининг самарали натижасини беради

6-sho'ba: MTT tarbiyalanuvchilarini rivojlanishida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati..... 500

| | |
|---|------|
| Murodov Farxat Muxmudjonovich. IMKONIYATI CHEKLANGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASHDA TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV | 500 |
| Bobomurodov Abdurafik Egamurodovich. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FUNKSIONAL TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA HARAKATLANISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI..... | 502 |
| Salimov G'ayrat Muhamedovich, Normatov Xasan Isroil o'gli. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERTALABKI GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING O'RNI..... | 504 |
| Sh.I.Davronov, BOSHLANG'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH | 506 |
| Sabirova Nasiba Rasulovna, Ismoilov Shahzod Hamzayevich. JISMONIY TARBIYA – SOG'LOM JAMIYAT POYDEVORI | 507 |
| Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi. Rahimova Jamila Rustam qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING AHAMIYATI..... | 509 |
| Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi. Rahimova Jamila Rustam qizi. KUNI UZAYTIRILGAN GURUHLARDA JISMONIY SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINING AHAMIYATI..... | 512 |
| Рашидов Хуршид Каримович. ОИЛАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ МУЎИТНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ-МЕЪЁРИЙ АСОСЛАРИ | 514 |
| А.Т.Тошев. ШАХМАТНИ ИНДИВИДУАЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ..... | 516 |
| Murodov Farxod Maxmudovich, Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN (TIFLO) BOLALARNING JISMONIY TARBIYASI..... | 520 |
| Erkinxojaeva Gulnoza Eldorxoja qizi. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERTALABKI BADANTARBIYA MASHQLARINING ASOSIY SHAKLLARI..... | 523 |
| Jo'raqulova E'zoza Erkin qizi. HARAKATLI O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY XUSUSIYATLARI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI | 525 |
| Raximova Gulhayo Ziyodulla qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASH XUSUSIYATLARI..... | 527 |
| Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM METODLARI..... | 529 |
| Гулбоев Акбар Тўхтаевич. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРНИ РИВОЖЛАНИШИДА ЖИСМОНИЙ МАШГУЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ..... | 531 |
| Бобоева Зарифа Жаҳонкуловна, Бахшуллаева Малоҳат Бахтиёр қизи, Баймурадов Раджаб Сайфитдинович. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. | 533 |
| Г.Я.Гревцева, Л.С. Элибаева. ВОСПИТАНИЕ МОРАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЧЕЛОВЕКА В «КАБУСНАМЕ»..... | 536 |
| Ataxo'jayev Valixo'ja. BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISH SOG'LOM KELAJAK POYDEVORI..... | 538 |
| Xudoyberganov Nodirjon. SOG'LOM BOLA – SOG'LOM OILA MEVASI, BUGUNIMIZ SAODATI, KELAJAGIMIZNING KAFOLATI..... | 540 |
| A.T.Toshev . MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOMLASHTIRISH GIGIYENIK OMILAR BOLALAR ORGANIZMINING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MUHIM VOSITA SIFATIDA..... | 542 |
| Мухитдинова Нигора Махриддиновна, ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР - БОЛАЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА САМАРАЛИ ВОСИТА | 545 |
| Афраимов А.А. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ | 546 |
| Саидмуродова Гавҳар Наврўзовна. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИ ЎТКАЗИШ МЕТОДИКАСИ | 548. |